

бирок, олар белгили техникалық қыйыншылықтарды жеңіуге бағышланған болыуы керек. Гамма сыяқлы болып ямаса басқа шынығыулардай белгили кенликпелердің пайда болыуына өз тәсірин көрсетеди. Белгили техникалық шынығыуларды көп мәртебе тәкірарлау аркалы арнаулы атқарыушылық қәсийетлер пайда болып бекиниседи хәм және де раўажланады, яғный,

анықлық, автоматлық (ойланбастан) хәм исенимлик пайда болады.

Жуўмақлап айтқанымызда, оқытыушы оқыушының хәр тәреплеме раўажланыуына дыққат пенен қарап оның техникалық раўажланыуын, музыкалық уқыбының раўажланыуы менен бирге алып барыуы жүдә орынлы болады.

Әдебиятлар

1. Одилов А, Петросянц А. Чанг дарслиги. –Тошкент: 1976.
2. Одилов.А. Чанг учун гамма, машк ва этюдлар. –Тошкент: 1968.
3. Василев Ф.Н. Қашқар рубоби учун гамма ва арпеджио аппликатураси. –Тошкент: 1978.
4. Назаров А.К. Бас дутор дарслиги. –Тошкент: 1983.
5. Петросянц А.И. Инструментоведение. –Ташкент: 1990.
6. Шарипов Н. Рубаб-примада ижро этишни ургатиш методикаси. –Т.: 1990.
7. Штейнпресс Б.С., Ямпольский И.М. Музыкальный энциклопедический словарь. 1966.

РЕЗЮМЕ. Мақолада муаллиф мусика чолғусида ижро этиш, этюдлар ва ижро техникаси устида ишлаш, шунингдек ўқувчи ва ўқитувчи ўртасидаги ўқитиш услуби, ижро маҳорати ҳақида ёзилган.

РЕЗЮМЕ. В статье автор пишет об игре на музыкальных инструментах, работе над этюдами и технике исполнения, а также о методах обучения между учениками и преподавателями, исполнительском мастерстве.

SUMMARY. The article discusses a wide range of topics, including playing musical instruments, practicing etudes and performance techniques, exploring teaching approaches between students and instructors, and delving into the world of performing arts.

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIMI O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

K.A.Kutlimuradov – katta o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nurak davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: “Eminbar.uz” “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanini oʻqitishda “Yogʻoch oʻymakorligida foydalaniladigan asboblari va materiallar” xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar

Ключевые слова: «Eminbar.uz» в преподавании предмета «Народные ремесла и художественное оформление» предмета «Инструменты и материалы, используемые в резьбе по дереву» народные промыслы профессиональные компетенции национальные ценности

Key words: “Eminbar.uz” in the teaching of “Folk crafts and artistic design” subject “Tools and materials used in wood carving” folk crafts professional competencies national values


KIRISH. Mamlakatimizda texnologik taʼlimdagi tub islohotlar natijasida pedagogika oliy taʼlim muassasalarida davlat buyurtmalari asosida kompetentli mutaxassislar, xususan, texnologiya fani oʻqituvchilarini tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari yaratilib, axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadining 6-xat boshida “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, bagʻrikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli taʼsirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga boʻlgan qatʼiy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash” ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa respublikamiz taʼlim tizimini isloh qilish va rivojlantirishning yoʻl xaritasini belgilab berdi. Mazkur vazifani amalga oshirishda boʻljak texnologiya fani oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar vositasida rivojlantirishning amaldagi metodikasi va oʻquv-metodik taʼminotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda oʻzlashtirish natijalarini obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

“Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanini oʻqitishda “Yogʻoch oʻymakorligida foydalaniladigan asboblari va materiallar” mavzusini oʻrganish asosida elektron dasturini amalga oshirib, dastlab kompyuterda maxsus papka ochilganda unda fan boʻyicha asosiy sahifasini ochuvchi birgina fayl (pedagogika oliy taʼlim muassasasining nomi, guruhi, index, html) boʻlishi kerak. Qolgan papkalar boʻyicha quyidagicha taqsimlanadi: img – grafika, suratlar, animatsiya va boshqalar; adabiyotlar – taʼlim yoʻnalishining DTS, malaka talabi, oʻquv rejas, fan dasturlari, taʼlim yoʻnalishining oʻquv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining oʻquv adabiyotlari, taʼlim yoʻnalishiga oid monografiyalar, metodik qoʻllanma va ishlanmalar; videolar – xalq hunarmandchilikka oid videolar; dars ishlanmalari – “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fani va “crafts» toʻgaragining dasturidagi mavzularining dars ishlanmalari; test – testlar, nazorat topshiriqlari, mashqlar; muallif – “Eminbar.uz” texnologiyasi muallifi haqida maʼlumot kiritilgan.

Birinchi bosqichda maxsus papka ochilgandan soʻng talabalar maxsus login va parol bilan tarmoqqa kirib roʻyxatdan oʻtadilar.

“Eminbar.uz” texnologiyasining ishlash faoliyatini maʼlumotlar bazasi bilan bogʻlash uchun PHP tilidan foydalanildi. Elektron resursni yaratishning bosqichlarini koʻrib chiqamiz:



1-rasm. “Eminbar.uz” texnologiyasining asosiy sahifasi.


Mazkur saytda bir mashgʻulot davomida oʻquv materialini chuqur va yaxlit holatda oʻrganish, mavzuning mohiyatini tushunib yetish, adabiyotlar boʻlimida fanga oid darsliklar, xalq hunarmandchiligiga va qoraqalpoq milliy qadriyatlarga oid qoʻllanmalarining doc, pdf va android apk variantlarini yuklab olib oʻqishlari, videolarni bir necha bor takror koʻrish natijasida mavzuni mustaqil egallashi mumkin. U turli mazmun va tavsiyaga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega boʻlgan mavzularni oʻrganishga moslashtirilgan boʻlib, oʻz ichiga ogʻzaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashgʻulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajariishi, navbat bilan talaba va oʻqituvchi roʻlida chiqishi mumkin.

Ushbu asosiy sahifa orqali “Eminbar.uz” texnologiyasidan foydalanib, “Yogʻoch oʻymakorligida foydalaniladigan asboblari va materiallar” mavzusini oʻzlashtirish va oʻqitishni boshlash yoʻlga qoʻyildi.




2-rasm. Adabiyotlar bo'limi.

Ushbu oyna sahifasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanidan darsliklar va qo'llanmalari orqali mavzuning mazmuni bilan tanishishadi, login parol, elektron pochtdalarini yozib o'tadilar va qaysi guruhda o'qishlarini kiritadi.




3-rasm. Videolar oynasi.

Ushbu oyna sahifasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanidan mavzuning mazmunini yoritib beruvchi video materiallar bilan tanishadilar va bemaol yuklab olishlari mumkin bo'ladi.




4-rasm. Videolar oynasi.

Mazkur oyna sahifasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanidan yog'och o'ymakorligi mavzusining mazmunini yoritib beruvchi rasm (jpeg, png, heic, gif, tiff, png, bmp, dib, jpe, jfif) materiallar bilan tanishadi va yuklab olishi mumkin bo'ladi.




5-rasm. Videolar oynasi.

Mazkur oyna sahifasida 5112100-texnologik ta'lim yo'nalishining me'yoriy hujjatlari (Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, fan dasturlari, ishchi o'quv fan dasturlari)ning pdf variantlari bilan tanishadilar va bemaol yuklab olishlari mumkin bo'ladi.




6-rasm. Online testga kirish oynasi.

Ushbu 2.3.4-rasm Online test tizimiga kirish oyna sahifasi, hisoblanib, unda registratsiyadan o'tish talab qilinadi. Talabalarning har biriga alohida-alohida login parol berilgan bo'lib, o'quvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan login parolni teradi.




7-rasm. Login oynasi.

Talabalar login oynasi orqali ro'yxatdan o'tganlaridan so'ng shaxsiy kabinetiga o'tadilar.



8-rasm. Test savollarni boshlash oynasi.

Mazkur oyna sahifasi orqali talabalar test savollariga start beriladi. Har bir talabaga testlar jamg'armasidan 10 tadan test savollari beriladi.




9-rasm. Test oynasi.

Ushbu oynada talabalar testga javob berish oynasi. Ushbu oynada talabaning ismi, familiyasi, sharifi va auditoriyasi 10 ta test savoli, ushbu test savolining nechtasiga javob berganligini ko'rsatib turadi.

10-rasm. Barcha savollar uchun ajratilgan oyna.


Bu oyna orqali o'quvchilarga har bir savollari uchun vaqt belgilanadi. Vaqt talabalar testni boshlagandan boshlab hisoblanadi.




Umumiy natijalar				
To	Testlar	Sana	To'g'ri javoblar	Kiritilgan (%)
1	Testlar	2023-09-28 10:00:00	12	2
2	Testlar	2023-09-28 10:00:00	24	4
3	Testlar	2023-09-28 10:00:00	48	7

11-rasm. Talabalarni baholash oynasi.

Talabalar berilgan testlarni bajargandan so'ng nechta savolga javob bergan va nechitasi to'g'ri javob ekanliklarini bilib oladilar.



Testlar	Sana	To'g'ri javoblar	Kiritilgan (%)
1. Testlar	2023-09-28 10:00:00	12	2
2. Testlar	2023-09-28 10:00:00	24	4
3. Testlar	2023-09-28 10:00:00	48	7



12-rasm. Manitoring oynasi.

Ushbu oyna sahifasidan o'qituvchi talabalarning testni bajarish holatlari va testni yakunlagach ekranga baholari chiqarib talabalarga ma'lum qiladi.

Yakuniy qism: Talabalarni baholashda berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklariga qarab 100 ballik baholash mezoniga ko'ra baholanadi. Bunda o'qituvchi baholash mezonlari va baholash tartibi bilan talabalarga yana bir bor ta'kidlab o'tadi, masalan, savollarga berilgan javoblar, agar to'liq javob bo'lsa 100-90 ball, o'qituvchi ko'magida qo'shimcha qilinsa 89-75 ball, to'g'ri javobga yaqin javob uchun 74-60 ball, javob bermasa 59-25 ball, mashg'ulot davomida umuman test va savol-javoblariga qatnashmasa, 24-1 ball bilan o'qituvchi tomonidan bahol-anishlari mumkin.

Mashg'ulotning yakuniy qismida o'qituvchi tomonidan talabalarning mashg'ulot davomida ishtirok etishlariga baho beriladi va talabalar tomonidan berilgan javoblariga o'z fikrini beradi hamda quyidagicha savollar bilan murojaat qiladi:

Bugungi mashg'ulotdan nimalarni bilib oldingiz?

Nimalarni o'rgandingiz?

Sizlarga nimalar yangilik bo'ldi?

Yana nimalarni bilishni istaysiz?

Mazkur savollarga talabalar o'qituvchiga chat orqali fikrini bildiradi. O'qituvchi har bir talabaning mashg'ulot davomida olgan baholarini e'lon qilib, mashg'ulotga yakun yasaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardagi xulosa shuki, darslarda "Eminbar.uz" texnologiyasidan foydalanilsa, talabalarning butun mashg'ulot jarayonida doimiy aqliy faoliyatda bo'lishini, yangi bilimni tez o'zlashtirishi va uni boshqalarga yetkazib berishi, mantiqiy fikrlashi, o'zlashtirgan bilimni boshqa talabalarga o'rgatishi, dars davomida bilimlarni uzluksiz takomillashtirib borishi, mashg'ulot jarayonida yangi mavzu bo'yicha bilimlarga ega bo'lish samaradorligini oshiradi. "Eminbar.uz" texnologiyasi axborotlashgan ta'lim muhitida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mustaqil vazifalarini bajarishida, xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda hamda ularning bilimni baholashda ochiqlik, adolatlilik va shaffoflik ta'minlanadi.

Adabiyotlar

1. Shomirzaev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanish genezisi va rivojlanish texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Toshkent: «Yangi nashr», 2016. – 88 b.
2. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2011.
3. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorganlik diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: «O'zbekiston», 2018. – 168 b.
4. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. nom.... diss. – Toshkent: TDPU, 2008. – 160 b.

REZYUME. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish metodikasi, "Eminbar.uz" texnologiyasining ishlash faoliyatini ma'lumotlar bazasi bilan bog'lash, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mustaqil vazifalarini bajarishida, xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda hamda ularning bilimni baholashda ochiqlik, adolatlilik va shaffoflik ta'minlanadi masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрена методика формирования профессиональных компетенций будущих учителей на основе национальных ценностей, связывания трудовой деятельности технологии «Eminbar.uz» с базой данных, при выполнении самостоятельных заданий будущих учителей технологического образования, профессиональных умений, связанных с народным творчеством. Ремесла вопросы открытости, справедливости и прозрачности обеспечиваются при развитии компетенций, основанных на национальных ценностях, и при оценке своих знаний.

SUMMARY. In the article, the methodology of developing professional competencies of future teachers based on national values, connecting the working activities of "Eminbar.uz" technology with the database, in the performance of independent tasks of future technological education teachers, professional skills related to folk crafts issues of openness, fairness and transparency are ensured in the development of competences based on national values and in the evaluation of their knowledge.